



**PROFILAKTIKA INSPEKTORINING QOTILLIK  
JINOYATLARINING VIKTIMOLOGIK PROFILAKTIKASINI TASHKIL  
ETISH FAOLIYATI**

*O'zbekiston Respublikasi IIV  
Akademiyasi 309-guruh kursanti  
Najmiddinova Marjona*

**Annotatsiya:** O'zbekiston Respublikasida bugungi kunda profilaktika inspektorlari tomonidan jinoyatlarni oldini olish hamda uning kelib chiqish sabablari hamda unga imkon bergen shart sharoitlarni bartaraf etish bo'yicha bir qancha ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Xususan, har payshanba kuni "Huquqbuzarliklar profilaktikasi kuni" deb belgilanishi, mahalla yettiligining tashkil etilishi va ular bilan hamkorlik asosida mahallalardagi huquqbuzarliklarni oldini olish hamda jinoyatchilikka qarshi kurashishning samarali mexanizmi ishlab chiqilishi va amaliyotga tatbiq qilinishi natijasida respublikamizdagi kriminogen vaziyatga ijobiy ta'sir o'tkazib kelinmoqda.

**Tayanch so'zlar:** Profilaktika inspektori, qotillik, viktimologik profilaktika, jabrlanuvchi, hamkorlik, kriminogen vaziyat, profilaktik chora tadbirlar,

Hozirgi kunda butun dunyoda insonning hayoti va sog'lig'iga qarshi sodir etilayotgan jinoyatlar soni ko'pligini kuzatishimiz mumkin. Bizning O'zbekiston Respublikamizda bu borada bir qancha islohotlar va o'zgarishlar amalga oshirilganligi natijasida bu kabi jinoyatlarning bir qancha kamayganini guvohi bo'lishimiz mumkin. Lekin shunga qaramasdan bu kabi jinoyatlar hozirgacha ham sodir etilayotganligi holatlari uchrab turibdi. Ana shunday jinoyatlardan biri bu insonning hayotiga qarshi qaratilgan qotillik jinoyatidir.

Qotillik jinoyatlari bu inson hayotiga tahdid soluvchi, jamiyatni eng og'ir zararlantiruvchi jinoyatlardan biri hisoblanadi. Ular nafaqat o'sha voqeaga bevosita



aloqador bo'lgan shaxslarning hayotini, balki jamiyatning umumiy xavfsizligini, barqarorligini va axloqiy fazilatlarini jiddiy ravishda buzadi. Shu sababli, qotillik jinoyatlarini oldini olish va ularning profilaktikasi dolzARB masala hisoblanadi. Lekin hozirgi kunda yana bir masala chetda qolayotgan bo'lib, bu qotillik jinoyatlarining viktimologik profilaktikasini amalga oshirishdir. Qotillik jinoyatlarining sodir etilishini kamaytirishda undan jabrlanish ehtimoli yuqori shaxslarga nisbatan viktimologik profilaktikani amalga oshirish ham o'zini yuqori darajada samarasini berishi mumkin. Viktimologik profilaktikani amalga oshirishda albatta profilaktika inspektorlarining roli juda kattadir. Ushbu maqolada, profilaktika inspektorining qotillik jinoyatlari viktimologik profilaktikasini tashkil etishdagi rolini tahlil qilamiz.

Viktimologiya – jinoyatning qurbanlari va ularga nisbatan sodir etilgan jinoyatlar haqida ilmiy izlanishlar olib boruvchi soha hisoblanadi. Viktimologik profilaktika esa, jinoyatlarning oldini olish va qurbanlarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan faoliyatni anglatadi. Profilaktika inspektorlarining vazifasi shundaki, ular potentsial qurbanlar va jinoyatchilar o'rtasidagi aloqalarni aniqlab, jinoyatchilikni kamaytirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshiradilar.

*Qotillik jinoyatining viktimologik profilaktikasi*-shaxsning hayoti va sog'lig'iga qarshi huquqbazarliklardan qurban bo'lishini taqozo etuvchi sabab, sharoitlarni bartaraf etish, kuchsizlantirish, ularga to'siqlar qo'yish hamda ushbu jinoyat qurbanini bo'lishga moyil bo'lgan shuningdek kasb, yoshi, jismoniy holati bilan bog'liq holda viktimligi bo'lgan shaxslarga qaratilgan chora-tadbirlar tizimini amalga oshirish jarayoni hamdir.

Ichki ishlar organlari tomonidan qotillik jinoyatini oldini olish faoliyati profilaktikasi fuqarolarning yoki muayyan shaxslarning hayoti va sog'lig'iga qarshi huquqbazarliklardan jabrlanish ehtimolini kamaytirishga yo'naltirilgan hamda ushbu huquqbazarliklarnisodir etilishida jabrlanuvchilarining tutgan o'rmini hamda jabrlanishning sabablari, ularga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish, shuningdek bu borada targ'ibot-tashviqot ishlarni tashkil etish orqali jabrlanish xavfini kamaytirish, ushbu huquqbazarliklar haqida ma'lumotlar berish, ogohlilikka,



xushyorlikka chaqirish hamda xavfsizlikni ta'minlash chora-tadbirlarini amalga oshirish maqsadida olib boriladi.

Qotillik jinoyatining sodir etilishi sabablari va ularga imkon bergan sharoitlarni aniqlash davomida Ichki ishlar organi xodimlari viktimogen xususiyatga ega bo'lgan holatlarga e'tibor berilishi kerak. Bular asosida fuqarolar uchun maxsus eslatmalar, varaqalar, plakatlar, ishlab chiqiladi. Ularda aynan tan jarohati, odam o'ldirish, bezorilik va shu kabi jinoyatlarning qurbaniga aylanmaslik uchun foydali maslahatlar beriladi.

Qotillik jinoyatining profilaktik faoliyati umumiylashtirilishi uchun maxsus va yakka tartibda amalga oshiriladi.

Qotillik jinoyatining umumiy viktimologik profilaktikasining muhim chorasi huquqiy targ'ibotdir. Amaliyatda jinoyatlar jabrlanuvchilarning huquqiy bilimlardan bexabarligi oqibatida sodir etilishi mumkin bo'lgan ko'plab hollarda uchraydi. Masalan, fuqarolarga zaruriy mudofaaning mohiyatini hamda g'ayriqonuniy tajovuzlarning oldini olish va ularni bartaraf etish ishidagi ahamiyatini tushuntirib berish jiddiy ahamiyatga ega bo'ladi.

Qotillik jinoyatlarining viktimologik profilaktikasi quyidagi asosiy maqsadlarni o'z ichiga oladi:

1. *Qurbanlarning ehtimoliy xavf-xatarlarini aniqlash*: Bu jarayon qotillik jinoyatlari uchun xavfli omillarni (masalan, oilaviy zo'ravonlik, alkogol va giyohvand moddalar iste'moli, shaxsiy nizolar) aniqlashga qaratilgan bo'lib, profilaktika inspektori bunday holatlarni oldini olish uchun zarur choralarini ko'rishi kerak.

2. *Jinoyatchilikning ijtimoiy, iqtisodiy va psixologik omillarini tahlil qilish*: Profilaktika inspektorlarining vazifalaridan biri, jinoyatchilikni keltirib chiqaruvchi sabablarni chuqur o'rganish va tahlil qilishdir. Bu omillarni aniqlash, jinoyatni oldini olishning samarali usullarini ishlab chiqishga yordam beradi.

3. *Jamoatchilikni xabardor qilish*: Aholini qotillik jinoyatlari xavfi haqida ogohlantirish va ularga qanday holatlarda yordam olish mumkinligini tushuntirish juda muhim. Profilaktika inspektorlari bu maqsadda targ'ibot ishlarini olib borishi, seminarlar va treninglar tashkil etishi zarur.



4. *Potentsial qurbonlarga yordam berish*: Oilaviy zo'ravonlikka uchragan yoki psixologik bosim ostida bo'lgan shaxslarni aniqlash va ularni himoya qilish uchun maxsus xizmatlarga yo'naltirish ham profilaktika inspektorlarining vazifasiga kiradi.

Fuqarolarning o'zlarining noto'g'ri xulqlari hamda qotillik jinoyatining qurboniga aylangan shaxslar haqidagi ma'lumotlardan foydalanib keng targ'ibot ishlari olib borish viktimologik jihatdan yaxshi profilaktik samara beradi hamda fuqarolarning ogohligini oshiradi, ularning o'z xatti-harakatlari va ular muloqotga kirishayotgan shaxslarning xulq-atvoriga nisbatan tanqidiy munosabatda bo'lishlariga yordam beradi, odamlarning jinoyatchilarni fosh etishda faol bo'lishlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Jumladan: internet axborot saytlari; fotovitrinalar; gazeta va jurnallardagi maqolalar; radioeshittirishlar va teleko'rsatuvlarda beriladigan jinoyatchilar harakatlarining usullari haqidagi ma'lumotlar; u yoki bu hayotiy vaziyatda eng oddiy ehtiyyotkorlik qoidalari haqidagi tavsiyalar va boshqa viktimologik axborotlar; huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan o'tkaziladigan turli tadbirlar, jumladan ma'ruza va davra suhbatlarida namoyon bo'ladi<sup>1</sup>.

Ichki ishlar organlari xodimlari ma'muriy hududining ijtimoiy-iqtisodiy kriminogen vaziyatini tahlili asosida mahalla fuqarolar yig'ini, o'zini-o'zi boshqarish organlari, yarashtirish komissiyalari, tuman hokimiyyati qoshidagi ijtimoiy ko'nikma markazi, bolalar masalalari bo'yicha idoralararo komissiyalari, "Yoshlar Ittifoqi", diniy qo'mitalar bilan hamkorlikda aholi o'rtasida, jamoat tashkilotlarida shaxsning hayoti va sog'lig'iga qarshi huquqbazarliklar sodir etilishi oqibatida fuqarolarning jabrlanib qolishini oldini olish mavzusida profilaktik tashviqot-targ'ibot ishlarini muntazam amalga oshirib borsa jabrlanuvchining jabrlanishini oldini olgan, hech bo'limganda ularning sonini kamayishiga erishgan bo'lamiz. Masalan, shaxs o'z harakatlarini boshqara olmasdan jahl ustidajanjallahib bir birlariga nisbatan tan jarohati yetkazish oqibatida kishi o'z hayotini o'zi barbod qilishi, mayib majruh bo'lib qolish sabablari xususida suhbatlar o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Qotillik

<sup>1</sup> Криминология. Махсус қисм: Дарслик / И.Исмоилов, Қ.Р.Абдурасулова ва бошқ. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2015. – 744 б.



jinoyatlarining oldini olish va viktimologik profilaktikasini tashkil etishda eng asosiy vazifalar profilaktika inspektori tomonidan amalga oshiriladi. Bu sohani yoritish uchun eng avvalo profilaktika inspektorining faoliyati bilan tanishib chiqishimiz lozim.

Profilaktika inspektori – jinoyatlarning oldini olish, asosan, jinoyatlarning ijtimoiy sabablarini tahlil qilib, ularni bartaraf etish yo‘llarini izlashga mas’ul shaxsdir. U qotillik kabi og‘ir jinoyatlarning oldini olishda muhim vazifalarni bajaradi. Profilaktika inspektorining faoliyati quyidagi asosiy yo‘nalishlarga qaratilgan bo‘lishi kerak:

1. ***Jinoyatni oldini olish va profilaktika tahlili:*** Profilaktika inspektori jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni aniqlash orqali jinoyatlarning ehtimoliy sabablarini tahlil qiladi. Oila va mahalla darajasidagi muammolarni, psixologik va iqtisodiy omillarni o‘rganish, jinoyatga motiv beruvchi omillarni aniqlash, qotilliklarni oldini olishda samarali bo‘lishi mumkin.

2. ***Viktimologik tahlil va qurbanlarni aniqlash:*** Qotillik jinoyatlarining qurbanlari ko‘pincha o‘zining hayoti, psixologik holati, ijtimoiy o‘rni yoki ma'lum bir muammolar bilan bog‘liq bo‘ladi. Profilaktika inspektori potentsial qurbanlarni aniqlash uchun jinoyatni tahlil qilishi, ularning xulq-atvorini va turmush tarzini o‘rganishi lozim. Bunday tahlil qurbanlarga nisbatan tegishli profilaktik choralarning belgilanishini ta'minlaydi.

3. ***Jamiyatda huquqiy tarbiya va madaniyatni oshirish:*** Profilaktika inspektori jinoyatlarning oldini olishda jamiyatda huquqiy madaniyatni rivojlantirishga katta e’tibor qaratishi lozim. Ushbu madaniyatni oshirish jinoyatlarning kamayishiga olib kelishi mumkin. Yaxshi huquqiy tarbiya va muhim omil bo‘ladi.

4. ***Maxsus maslahatlar va o‘zaro hamkorlik:*** Profilaktika inspektori, potentsial qurbanlar va jinoyatchilar bilan ishslashda o‘zaro maslahatlar va psixologik yordam ko‘rsatish orqali, ularning huquqiy va psixologik holatini yaxshilashga harakat qiladi. Masalan, jismoniy yoki ruhiy zo‘ravonlikka duchor bo‘layotgan shaxslarni aniqlash va ularga yordam berish, qotillik jinoyatlarining oldini olishda muhim ahamiyatga ega.



5. *Jinoyatchilar bilan profilaktik ishlash:* Jinoyatni amalga oshirishi mumkin bo‘lgan shaxslar bilan profilaktik ishlash ham muhimdir. Bu avvalambor, jinoyatchilikning sabablari va ular bilan qanday kurashish, ularni jinoyatni amalga oshirishdan oldin to‘xtatish bo‘yicha maslahatlar berish bilan bog‘liq. Shu bilan birga, jinoyatchilarni qayta tarbiyalash va reabilitatsiya qilish muhim ahamiyatga ega.

### ***Viktimologik profilaktikaning samaradorligi hamda hozirda uchrayotgan kamchiliklar***

Viktimologik profilaktika o‘zining samaradorligini faqat ilg‘or tadbirlar yordamida ko‘rsatadi. Ushbu profilaktika metodlarini to‘g‘ri qo‘llash, jinoyatlarning oldini olish va potentsial qurbonlarning xavfsizligini ta‘minlashda yuqori natijalarni berishi mumkin. Viktimologik tahlil va o‘zaro hamkorlik, jinoyatlarning oldini olishda jamiyatni yaxshilashda samarali usul bo‘lib xizmat qiladi. Lekin shunga qaramasdan ushbu sohada ham ma’lum bir kamchilik va muammolar borligi ushbu faoliyatni takomillashtirish zarurligini taqozo etmoqda. Ana shunday kamchiliklardan biri bu hozirgi kunga qadar huquqbazarliklardan jabrlanuvchilarning markazlashgan holda hisobi yuritilmayotganligidir. Chunki aynan huquqbazarliklardan jabrlanuvchilarning hisobi ichki ishlar organlari tomonidan yuritilmasa, ular alohida tahlil qilinmasa huquqbazarliklarning viktimologik profilaktikasini to‘g‘ri tashkil etib va amalga oshirib bo‘lmaydi. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Agarda ichki ishlar organlari tomonidan huquqbazarliklardan jabrlangan shaxslarning markazlashgan hisobi yuritilib, ular qaysi toifadagi huquqbazarliklardan jabrlanganliklari bo‘yicha toifalarga ajratiladigan bo‘lsa keyinchalik sodir etilishi mumkin bo‘lgan jinoyatlarning sabab va sharoitlarini aniqlab, ularni bartaraf etishga ham xizmat qilishi mumkin.

Fuqarolik, shaxs va jamiyat rivojlanib borar ekan aholining bir joydan ikkinchi joyga ko‘chishi ham o‘sib boraveradi. Ular turli maqsadlarda davlatlar ichida yoki davlatlararo ham ko‘chib yurishlari mumkin.

Odamlar qadimdan turli hududlarga ko‘chib yurgan. Turli omillar – urush, tabiiy ofatlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklar insonlarni o‘z yashash joyini o‘zgartirishga majbur qilgan.



Shu sababli dunyoda migrantlar va ularning ko'chib o'tishi yoki ko'chib yurishi ya'ni migratsiya vujudga kelgan..

Migratsiya - lotincha *migratio* — ko'chaman, joyimni o'zgartiraman ma'nosini anglatadi.

Xalqaro migratsiya tashkiloti ta'rifiga ko'ra, o'zining huquqiy maqomi, ixtiyoriy yoki noixtiyoriy ko'chishi, ko'chish sabablari yoki biror davlatda qolish muddatidan qat'iy nazar o'z yashash joyini tark etgan hamda xalqaro yoki ichki chegaralarni kesib o'tgan har qanday shaxs migrant hisoblanadi. Shu o'rinda migrantlarni qochqin bilan adashtirmaslik kerak. Migrantlar qochqinlardan farqli o'laroq boshqa davlatlarga ta'qiblar yoki o'z hayotiga xavf tug'ilishi ortidan ketmaydi. Ularning asosiy maqsadi — turmush tarzini yaxshilash, yaxshi ish topish yoki ta'lim olish. Migrantlarning katta qismi qonuniy migratsiya yo'llarini tanlaydi, ammo ular orasida u yoki bu davlatga noqonuniy kanallar orqali borganlar ham bor.

Bugungi kunda migrantlar sonining oshib borishiga bir qancha sabablar mavjud. BMT ma'lumotlariga ko'ra, 2022 - yilda dunyoda 281 milion migrant bo'lib, bu sayyora aholisining 3,6 foizini tashkil etadi. So'nggi yillarda xalqaro migratsiya masshtabi keskin oshib bormoqda: 2020-yilda sayyorada 1970 - yilga nisbatan 3 barobar ko'p muhajirlar bo'lgan.

BMT ma'lumotlariga ko'ra, 2022 - yilda dunyoda 281 milion migrant bo'lib, bu sayyora aholisining 3,6 foizini tashkil etadi. So'nggi yillarda xalqaro migratsiya masshtabi keskin oshib bormoqda: 2020 - yilda sayyorada 1970 - yilga nisbatan 3 barobar ko'p muhajirlar bo'lgan.

Masalan, pandemiya va u bilan bog'liq cheklavlarga qaramay, mehnat migrantlari 2020 - yilda 702 miliard AQSH dollari miqdorida pul o'tkazmalarini amalga oshirgan. Eng ko'p o'tkazmalar Hindiston, Xitoy, Meksika, Filippin va Misr hissasiga to'g'ri kelgan.

Oxirgi o'n yillikda AQSH va Germaniya migrantlar orasida eng mashhur yo'nalishga aylandi. AQSHda 1970 - yilda 12 milion xalqaro muhajirlar bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda ularning miqdori 51 miliondan oshgan. Germaniyada so'nggi 10 yilda migrantlar 8,9 miliondan 16 milionga ko'paydi. Shuningdek, Fransiya,



BAA va Saudiya Arabistonni ham muhojirlar uchun jozibador davlatlar sanaladi. Birgina BAA aholisining 88 foizini mehnat migrantlari tashkil etadi.

Umuman olganda, 60 foizga yaqin aholi yaxshiroq yashash maqsadida Yevropa va Osiyoga yo'l oladi. Yevropada 87 milion. Undan keying o'rinda Shimoliy Amerika turadi, bu yerda 59 milion mehnat migrantlari bor.

Muhojirlarning kelib chiqish davlatlariga e'tibor berilsa, ularning 40 foizi Osiyoning olti davlatidan: Hindiston, Xitoy, Bangladesh, Pokiston, Filippin va Afg'oniston. Meksikalik muhojirlar hindistonliklardan keyin ikkinchi o'rinda tursa, rossiyaliklar xalqaro migrantlar orasida 3 - o'rinni egallaydi.<sup>2</sup>

### FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023;
2. O'zbekiston Respublikasi 2014-yil 14-maydagi "Huquqbazarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi 2014-yil 14-maydagi O'RQ-371-son qonuni;
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-27-son farmoni
4. O'zbekiston Respublikasi "Ichki ishlar to'g'risida"gi 2016-yil 16-sentabrdagi O'RQ-407-son qonuni.
5. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi <https://lex.uz/acts/111453>
6. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'grisidagi kodeksi <https://lex.uz/acts/97664>
7. O'zbekiston Respublikasining Kodekslar to'plami <https://kitobxon.com/uz/kitob/ozbekiston-respublikasining-kodeklari-toplami-1-2-jildlar>
8. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 12.10.2019 й., 09/19/865/3908-сон; Конунчилик маълумотлари миллий базаси, 11.02.2022 й., 07/22/126/0125-сон;

<sup>2</sup> <https://zamon.uz/detail/migratsiya-kelib-chiqish-sabablari-qochqinlar-va-migrantlar-farqi-muhajirlar-uchun-eng-maqbul-davlatlar-maxsus-ruknlar>